



Achilova Liliya Ilxomovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti loyihasi katta ilmiy xodimi,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori,



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori

ERTA NIKOH VA ERTA TUG'URUQ HOLATLARI BO'YICHA XALQARO NORMALAR VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada erta nikoh va erta tug'uruq holatlariga oid xalqaro talablarning milliy qonunchilikda aks etishi, ma'muriy va jinoiy javobgarlik, sud-huquq amaliyoti tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: erta nikoh, erta tug'uruq, xalqaro talablar, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, sud-huquq amaliyoti.

Аннотация. В данной статье проводится анализ отражения международных требований относительно ранних браков и ранних родов в национальном законодательстве, административной и уголовной ответственности, судебной практике.

Ключевые слова: ранний брак, ранние роды, международные требования, административная ответственность, уголовная ответственность, судебная практика.

Annotation. This article analyzes the reflection of international requirements regarding early marriages and early childbirth in national legislation, administrative and criminal liability, and judicial practice.

Ключевые слова: ранний брак, ранние роды, международные требования, административная ответственность, уголовная ответственность, судебная практика.

Kirish. Erta nikoh va erta tug'uruq inson huquqlari bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Inson huquqlari nuqtayi nazaridan o'smir qizning homiladorligi – yuzaga kelish holati yoki sabablaridan qat'i nazar, uning huquqlarini cheklaydi.

O'tgan yillarda O'zbekistonda “Sog'lom ona – sog'lom bola” konsepsiyasi ishlab chiqilib, onalik va bolalikni muhofaza qilishning milliy modeli yaratildi.

O'zbekistonda davlat va jamiyat oila mustahkamligidan manfaatdor bo'lib, bu boradagi vazifalar mamlakatning milliy manfaatlarini darajasiga ko'tarilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2021-yilda respublika bo'yicha 93 ta erta nikoh qayd etilgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan 5 nafarga oshgan. Erta nikohning eng yuqori ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (26 ta).

2021-yilda 18 yoshga to'lmagan qizlar orasida **1 496** ta tug'uruq holatlari qayd etilib, 2020-yilga nisbatan 537 taga oshgan. Erta tug'uruqning eng yuqori ko'rsatkichlari – Samarqand (340 ta), Qashqadaryo (242 ta), Toshkent (166 ta), Surxondaryo (141 ta) va Buxoro (125 ta) viloyatlarida kuzatilgan.

Erta tug'uruq holatlari, ayniqsa, 13-14 yoshli qizlar orasida ko'payib borayotgani tashvishli holdir.

Bunday holatlar 2019-yilda 6 ta, 2020-yilda 9 ta kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yilda mazkur ko'rsatkich 16 tani tashkil etdi.

2016–2022-yillarda erta nikoh va erta tug'uruq holatlarining oldini olishga qaratilgan 20 ga yaqin qonunchilik hujjati qabul qilingan bo'lsa-da, aholi huquqiy va tibbiy madaniyati yuqori bo'lmaganligi, ularning ijrosi samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Asosiy qism. Xalqaro talablar

1. 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasiga ko'ra, “Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikoh holatidagi vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin” [1].

O'zbekiston Respublikasi mazkur hujjatni 1991-yil 30-sentabrda ratifikatsiya qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida har bir inson tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, 45-moddada voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidaligi, 46-moddada xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlangan [2].

Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3, 14-moddalarida o'z aksini topgan. Jumladan, Oila kodeksining 3-moddasida “Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi”; 14-moddasida “Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi” [3], deb belgilab qo'yilgan.

2. 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi PAKT [4] ning 3-moddasi hamda **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi PAKT [5]** ning 2, 3-moddalarida ham erkak va

ayollarning teng ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishlari belgilangan. Ushbu paktning uchta moddasida ayollar masalasiga oid maxsus normalar mavjud. Xususan, “...erkaklar va ayollar uchun ushbu paktida nazarda tutilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi” (3-m.) “...homilador ayollarga nisbatan ijro etilmaydi” (6-m.) hamda “Nikoh yoshiga to'lgan erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish hamda oila qurish huquqi tan olinadi” (23-m.) shaklida bayon etilgan (O'zbekiston har ikkala xalqaro PAKTga 1995-yil 31-avgustda qo'shilgan. Mazkur Pakti Qozog'iston (2006-yil 24-yanvar), Qirg'iziston (1994-yil 7-oktabr), Tojikiston (1999-yil 4-yanvar), Turkmaniston (1997-yil 1-may) va O'zbekiston (1995-yil 28-sentabr) Respublikalari ratifikatsiya qilgan).

3. “Qullikka, qul savdosi hamda qullikka o'xshash institutlar va odatlarga barham berish to'g'risida”gi 1956-yilgi qo'shimcha Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida Konvensiyaga a'zo davlatlarning quyidagi odatlarni tugatish va bartaraf etish bo'yicha qonun normalarini ishlab chiqishini talab etadi va ushbu holatlarni qullikka o'xshash odat sifatida e'tirof etadi:

– ayolga ota-onasi, vasiysi, oilasi yoki boshqa har qanday shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan pul yoki boshqa turdagi mukofot uchun o'z tomonidan rad etish huquqsiz, nikoh uchun va'da qilish yoki berish;

– ayolning eri, oilasi yoki jamoasi uni boshqa shaxsga badal yoki boshqa mukofot evaziga o'zga shaxsga o'tkazishi;

– erining o'limidan so'ng ayol boshqa shaxsga meros bo'lib o'tishi.

4. 1962-yilgi Nikohga rozilik berish, nikoh yoshi va nikohlarni qayd etish to'g'risidagi Konvensiya va 1965-yilgi “Nikohga rozilik berish, eng kam nikoh yoshi va nikohlarni qayd qilish to'g'risida tavsiyalar”.

Nikohga rozilik berish, nikoh yoshi va nikohlarni qayd etish to'g'risidagi Konvensiyaning 1, 2 va 3-moddalarida ishtirokchi davlatlarni nikohning eng kam yoshini belgilaydigan qonunchilikni qabul qilish majburiyatini yuklagan. Belgilangan yoshga yetmagan shaxsga turmushga chiqishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh vakolatli organlar tomonidan qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida nikoh yoshi belgilangan bo'lib, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan. Nikoh yoshi 2019-yil 28-avgustda 18 yosh etib erkak va ayollar uchun tenglashtirilgan. Avvalgi tahrirda nikoh yoshi ayollar uchun 17 yosh, erkaklar uchun 18 yosh edi.

Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Ushbu modda mazmunidan nikoh yoshi faqatgina 1 yoshga kamaytirilishi, ya'ni 17 yosh qilib kamaytirilishi nazarda tutilmoqda.

5. 1979-yilgi Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaning 16-moddasi "a" va "b" bandlarida nikohga kirish erkinligi va rozilik to'g'risida qoida o'rnatilgan. Shuningdek, moddaning 2-qismida "Bolaning nikohi va nikohlash rasman yuridik kuchga ega emas, nikohning eng kam yoshini aniqlash va nikohlarni fuqarolik holati dalolatnomalarida qayd etishni majburiy qilish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart" [6], deb belgilangan (O'zbekiston mazkur Konvensiyani 1995-yil 6-mayda ratifikatsiya qilgan).

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 13-moddasida mazkur norma o'z aksini topgan.

13-modda. Nikoh tuzish tartibi

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

6. 1950-yilgi Inson huquqlari va fundamental erkinliklar to'g'risida Yevropa Konvensiyasining 12-moddasi nikoh yoshiga oid qoidalarni belgilaydi.

7. 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (O'zbekiston mazkur Konvensiyaga 1992-yil qo'shilgan) ning 1-moddasiga ko'ra, 18 yoshga to'lgunga qadar har qanday inson zoti bola hisoblanadi [7].

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 1-dekabrda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi Qonunining 3-moddasi Konvensiya talablariga mos ravishdadir. "Bola (bolalar) – o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar). Qonunning 8-moddasida

"Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi" [8], deb qayd qilingan.

Konvensiyaning 12-moddasida bolaning o'z shaxsiy qarashlari, o'z fikrini erkin ifodalash huquqining kafolatlanishi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 15 va 17-moddalarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, 15-moddada "Oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda etishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama jarayonida so'zlashga haqlidir. Bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat'i nazar ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerak"; 17-moddada "Bola fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin", deb qayd qilingan.

Shuningdek, Konvensiyaning 19-moddasida belgilab qo'yilgan bolaning har qanday tazyiqlardan, psixologik va jismoniy tahdid hamda zo'ravonliklardan himoyalaniishi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida o'z ifodasini topgan.

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar-joy daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalaniish huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Davlat:

- bolaga nisbatan ekspluatatsiya va zoʻravonlikning barcha shakllarining oldini olish, shuningdek, ularning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- ekspluatatsiya va zoʻravonlikka duchor boʻlgan bolalarga zarur pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik yordam koʻrsatish boʻyicha choralar koʻradi.

Konvensiyaning 24-moddasida bolaning sogʻliqni saqlashga oid huquqlari belgilangan va bu “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunning 22-moddasida ifodasini topgan:

Har bir bola sogʻligʻini saqlash huquqiga ega.

Davlat sogʻlom bola tugʻilishini taʼminlash uchun onaga uning sogʻligʻini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sogʻligʻini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yoʻllar bilan taʼminlanadi:

- malakali tibbiy xizmat koʻrsatilishini tashkil qilish;

- bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;

- bolalar va oʻsmirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;

- talab darajasidagi sifatga ega boʻlgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;

- bolaning fiziologik xususiyatlari va sogʻligʻi holatiga javob beradigan taʼlim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;

- kasbga yaroqlilikni aniqlashda Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;

- sanitariya-gigiyena taʼlimi berish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va ragʻbatlantirish;

- sogʻligʻining holati toʻgʻrisida bola uchun qulay boʻlgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

Oʻn toʻrt yoshdan katta bola maʼlumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sogʻligʻi va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar oʻtkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga taʼsir koʻrsatadigan boshqa moddalarni isteʼmol qilishdan himoya qilish boʻyicha zarur choralarini koʻradi.

8. 1995-yilgi Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi. Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi 1995-yil 4–15-sentabr kunlari Pekin shahrida boʻlib oʻtgan Xotin-qizlar holati boʻyicha toʻrtinchi Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan. Unda davlatlar tomonidan xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va targʻib etish boʻyicha majburiyatlar shakllantirilgan. Bugun Pekin Harakatlar platformasi gender tenglikka erishishga va xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan siyosatning oltin standarti hisoblanadi. Unda qatʼiy choralar koʻrish zarur boʻlgan 12 ta muhim yoʻnalish belgilangan. Ulardan uchinchi yoʻnalish sifatida “Ayollar va sogʻliqni saqlash”, shuningdek, oʻn ikkinchi yoʻnalish sifatida “qizlar” belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasi har bir 12 ta yoʻnalish [9], jumladan, erta nikoh va erta tugʻuruq boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

9. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining erta nikoh va erta tugʻuruq holatlariga oid normativ hujjatlari va talablari ham eʼtiborli. Ular Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan bajarib kelinmoqda.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) BMTning boshqa agentliklari, xalqaro va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va davlat organlari bilan uzviy ravishda faoliyat olib boradi. Ularning ayrimlari epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni takomillashtirish, erta homiladorlikning determinantlari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borish va erta homiladorlik muammosini hal qilishda samarali yondashuvlarni topish bilan shugʻullanadi. Ular orasida quyidagi yoʻnalishlar JSST tomonidan belgilanib kelmoqda:

- erta homiladorlikning oldini olish, qizlarni maktabda taʼlim bilan qamrab olish va ularni jinsiy majburlashdan himoya qilish boʻyicha qonun va strategiyalarni ishlab chiqish;

- maktabda qizlarni taʼlim bilan qamrab olish va erta nikohning oldini olish uchun iqtisodiy ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash dasturlaridan foydalanish;

- qizlarning huquqiy ongini o‘stirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish;
- qizlarning oilalarini va mahalliy jamoalarni ularni qo‘llab-quvvatlashga undash.

Milliy qonunchilik

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish sohasida 2016–2021-yillar mobaynida 20 ga yaqin normativ hujjat qabul qilingan.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, deb belgilangan. Demak, gender tengligining xalqaro va konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 15-moddasi nikoh yoshiga oid normalarni aks ettiradi. Unga ko‘ra, ayollar va erkaklar uchun tenglashtirilgan nikoh yoshi 18 yosh etib belgilangan.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeksining 47³-moddasi va Jinoyat kodeksining 125¹-moddasiga ko‘ra, nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik o‘rnatilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 841-sonli qarorida 5-milliy maqsad sifatida gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan bo‘lsa, uning 5.3-vazifasi “Erta nikohlar va zo‘rlab nikohlashni tugatish” [10] hisoblanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida “Gender-huquqiy ekspertizani yuritish, gender statistikasini shakllantirish tartibi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng

huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, ijtimoiy himoya sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilangan” [11].

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” tasdiqlandi [12]. Unga ko‘ra, barcha yangi qonun loyihalari gender nuqtayi nazaridan tahlil qilib kelinmoqda.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni [13].

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi “Erta turmush va erta tug‘uruq holatlari hamda oilaviy ajralishlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-105- IV -sonli Qaroriga ilova bilan tasdiqlangan “Erta turmush va erta tug‘uruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi”.

Erta tug‘uruq masalasi erta nikoh bilan bog‘liq holat, lekin ba‘zi hollarda voyaga yetmaganlar orasidagi erta homiladorlik holatlariga oid Sog‘liqni saqlash vazirligi va hamkor tashkilotlarning o‘zaro birgalikda amalga oshiradigan kompleks chora-tadbirlarga oid buyruqlar ishlab chiqilgan. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini belgilovchi yo‘riqnomalar amalda qo‘llanib kelinadi. O‘zbekiston Respublikasida erta tug‘uruqning oldini olishga qaratilgan normativ hujjatlar idoraviy ko‘rinishdadir.

Erta nikoh va erta tug‘uruq holatlariga oid ma‘muriy va jinoiy javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasida nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun 2013-yil 20-martdan boshlab ma‘muriy va jinoiy javobgarlik o‘rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning (MJTK) 47³-moddasiga asosan:

nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish – bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish – bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [14].

Mazkur modda bo'yicha subyektlarga quyidagilar kiradi:

- nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishgan shaxs;
- nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoki uylantirgani uchun ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar;
- nikoh yoshiga yetmagan shaxslarni nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirgan shaxs.

Ushbu huquqbuzarliklar aniqlanib, mazkur moddaning obyektiv tomonidagi harakatlarni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jazolar qo'llanadi. Jumladan, 47³-moddaning 1-qismidagi huquqbuzarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdordagi jarima solinadi. Bu hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-avgustdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoni bilan 2021-yil 1-sentabrdan boshlab 270 000 so'm hisoblanadi [15]. 47³-moddaning 1-qismidagi ma'muriy jazo 1 350 000 so'mdan 2 700 000 so'mgacha miqdorda, 47³-moddaning 2-qismidagi huquqbuzarlik uchun 1 890 000 so'mdan 4 050 000 so'mgacha jarima tayinlanishi mumkin. 47³-moddaning 3-qismidagi huquqbuzarlik uchun esa 2 700 000 so'mdan 5 400 000 so'mgacha bo'lgan miqdordagi jarima tayinlanishi mumkin.

Mazkur modda mazmuniga ko'ra, eng og'ir ma'muriy jazo diniy marosimni o'tkazgan shaxsga

nisbatan qo'llanmoqda. Bundan tashqari, ma'muriy jazo qo'llangach erta nikoh holatining mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi yoki erta nikoh holatining oldini oluvchi, ya'ni huquqbuzarlik sodir etishdan tiyilish holatini yuzaga keltiruvchi normativ funktsiya zaif holda ekanini kuzatish mumkin:

Birinchidan, jarima miqdori sodir etilgan huquqbuzarlik mazmuniga nisbatan baholanganda, boshqa turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun belgilangan jarima miqdorlaridan deyarli farqlanmayapti va ijtimoiy xavflilik nuqtayi nazaridan ular bilan teng darajalanyapti.

Masalan, MJTKning 40-moddasi – tuhmat sodir etgan shaxslar uchun ma'muriy jarima miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 60 baravarigacha, 41-modda – haqorat qilish uchun 20 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima belgilangan. Vaholanki, erta nikoh holatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi mazkur huquqbuzarliklardan yuqori. Bundan tashqari, MJTKning 155¹-moddasi kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish 1-qismi sanksiyasi erta nikoh holatlari bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun belgilangan sanksiya bilan bir xil belgilangan.

Ikkinchidan, 47³-moddasi dispozitsiyasida differensiyalash holati diniy marosim o'tkazgan shaxs uchun kattaroq. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, erta nikoh holatlari yashirin tusga ega, ushbu holatlar ko'p hollarda erta tug'uruq yuzaga kelmaguncha aniqlanmaydi, ya'ni diniy marosimni o'tkazgan shaxslarni aniqlash imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Yuqoridagi holatlar sodir etilib, jarima tayinlangach, 1 yil ichida yana ayni shunday harakatlar sodir etilsa, jinoiy javobgarlik o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125¹-moddasi "Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" hisoblanadi. Mazkur moddaga ko'ra:

– nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

– ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan

shaxsni erga berish yoxud uylantirish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llangandan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi;

– nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llangandan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi [16].

Mazkur moddaning sharhiga [17] ahamiyat qaratadigan bo'lsak, modda uch qismdan iborat bo'lib, ushbu moddaning 1-qismiga ko'ra, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishganlik uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab MJTKning 47³-moddasi 1-qismi bilan shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llangandan keyin sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Ushbu qoidaga agar nikoh yoshiga yetmagan shaxs, ya'ni erkaklar va ayollar 18 yoshga to'lgunga qadar (agar hokim qarori bilan bu yosh 1 yilga kamaytirilmagan bo'lsa) ixtiyoriy ravishda haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishgan bo'lsa, ularning harakatlari uchun javobgarlik belgilangan.

Bunda haqiqatda nikoh munosabatlariga kirish deganda, nikoh yoshiga yetmagan shaxslarning er-xotin bo'lib yashab, er-xotinlik munosabatlarida bo'lishi tushuniladi. Ushbu holatda javobgarlik faqatgina nikoh yoshiga yetmagan shaxslarning o'zaro ixtiyoriy nikoh munosabatlariga kirishishi tushuniladi.

Moddaning 2-qismiga ko'ra, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab MJTKning 47³-moddasi 2-qismi bilan shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Ushbu qoidaga ko'ra, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxslarni erga berish yoki uylantirish maqsadida bila turib, nikoh

marosimlarini o'tkazish va nikoh yoshiga yetmagan shaxslarning birga yashashlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishi tushuniladi. Agar ota-ona yoki ularning harakatlari Jinoyat kodeksi 136-moddasi (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki to'sqinlik qilish) bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3-qismiga ko'ra nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab MJTKning 47³-moddasi 3-qismi bilan shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llangandan keyin sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu qoidaga ko'ra, maxsus diniy ma'lumotga ega va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining tegishli ruxsatiga ega bo'lgan shaxs (masalan, masjid imomi, masjid imom-xatibi kabilar) tomonidan bila turib, nikoh yoshiga yetmagan shaxslarni nikoh tuzishga doir diniy marosimlarni amalga oshirishi tushuniladi. Agar maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatiga ega bo'lmagan shaxs nikoh yoshiga yetmagan shaxslarning nikoh tuzishga doir diniy marosimlarni amalga oshirsa, ish holatlariga qarab aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 229²-moddasi (diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish) bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Bu yerda ma'muriy javobgarlikka nisbatan jiddiyroq darajadagi jarima miqdorlari belgilanmoqda. Misol uchun, moddaning 1-qismidagi 5 400 000 so'm – 8 100 000 so'm miqdordagi jarima tayinlanishi mumkin, 2-qismidagi jinoyat uchun 8 100 000 so'm – 13 500 000 so'm miqdoridagi jarima, moddaning 3-qismidagi javobgarlik uchun 13 500 000 so'm – 27 000 000 so'm jarima tayinlanishi mumkin. Bu yerda ahamiyat qaratiladigan jihat shuki, jinoiy javobgarlik ma'muriy javobgarlik qo'llangandan keyin yuzaga kelishidadir. Masalaning quyidagi jihatlari nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishga oid belgilangan jinoiy javobgarlik normasini "ishlamaydigan" normaga aylantirmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ma'muriy javobgarlik qo'llangach, bir voyaga yetmagan qizga uylangan shaxsning yana qayta shu huquqbuzarlikni sodir etish masalasida 2 xil ko'rinishdagi holat yuzaga kelmoqda. Birinchisi voyaga yetmagan qizga

uylanib, so'ng u bilan ajrashib yana voyaga yetmagan qizga uylanish holati yuzaga kelganda ma'muriy javobgarlikdan so'ng jinoiy javobgarlik yuzaga keladi. Yoki ota-onaning bir nafar voyaga yetmagan qizi bo'lsa-chi? Uni erga bergani uchun ma'muriy javobgarlik qo'llangandan so'ng yana qayta o'sha qizini erga bermasa kerak? Yoki ikkita qizi bor deb faraz qilingan taqdirda ham, jinoiy javobgarlik masalasi bunday turdagi huquqbuzarlik uchun qo'llanishi imkonsiz. Bu esa amaldagi javobgarlik normalarining ishlamasdan o'z vaqtida sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan qo'llanmayotganini sud huquq amaliyotidan ham kuzatishimiz mumkin.

Sud-huquq amaliyoti

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq amaliyoti [18] tahlili so'nggi yillarda erta turmush bo'yicha ma'muriy tartibda ko'rilgan ishlar va javobgarlikka tortilgan shaxslar soni ortib borayotganini ko'rsatmoqda. So'nggi 5 yillik ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni ma'muriy javobgarlikka tortilganlarga nisbatan kamroq. Bu esa, o'z navbatida, ma'muriy javobgarlik choralarining o'z samarasini berayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, huquqbuzarlar faqat ma'muriy jarima to'lash bilan qutulayotganliklarini kuzatish mumkin. Masalan, ma'muriy tartibda ko'rib chiqilgan ishlar soni 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 2,3 barobarga ortgan. Javobgarlikka tortilgan shaxslarning soni ham 2019-yilga nisbatan olib qaraganda 2,4 barobarga ko'paygan. 2021-yilning sakkiz oyida O'zbekiston Respublikasi MJTKning 47³-moddasi bilan ko'rilgan ishlar soni 40 tani tashkil etgan.

2016-yilda Jinoyat kodeksining quyidagi moddalari bo'yicha xotin qizlar huquqlarini buzish bilan bog'liq ishlar ko'rilgan. Ammo ular orasida erta turmush holatlari bo'yicha jinoiy javobgarlikka oid ishlar kuzatilmagan. Misol uchun, 103-modda (o'z-o'zini o'ldirish darajasiga yetkazish) – 51 ta ish (55 shaxs), 110-modda (qiynash) – 73 ta ish (87 shaxs), 118-modda (nomusga tegish) – 357 ta (427 shaxs), 121-modda (ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash) – 33 ish (38 shaxs), 126-modda (ko'p xotinli bo'lish) – 26 ish (28 shaxs), 131¹-modda (Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama

qilish, namoyish etish – 18 ta holat (31 ta shaxs), 135-modda (“odam savdosi”) – 382 ta holat (542 ta shaxs), 136-modda (Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish) – 29 holat (79 shaxs), 141-modda (Fuqarolarning teng huquqliligini buzish) – 1 holat (2 shaxs).

2017-yilda esa jinoiy javobgarlik masalasi Jinoyat kodeksining 125¹-moddasi [19] bo'yicha bitta ish ko'rilganini kuzatish mumkin. Misol uchun, 103-modda – 30 ta ish (37 ta shaxs), 110-modda – 35 ish (44 ta shaxs), 118-modda – 269 hollarda (334 ta shaxs), 121-modda – 5 ta ish (11 ta shaxs), 126-modda – 33 ta ish (34 ta shaxs), 125¹-modda (nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) – 1 ta ish (10 kishi), 130¹ – 5 ta ish (6 kishi), 135 modda – 295 ta ish (401 ta shaxs), 103¹ (o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish) – 1 ta ish (1 kishi), 136-modda – 23 hollarda (46 ta shaxs) bo'yicha ishlar ko'rilgan.

2018-yilda: 103-modda – 28 hollarda (33 kishi), 110-modda – 37 ta ish (48 kishi), 118-modda – 144 ta ish (173 kishi), 121-modda – 9 ta ish (11 kishi), 126-modda – 18 ta ish (18 kishi), 136-modda – 8 ta ish (18 kishi).

2019-yilda: 103-modda – 18 ta ish (22 shaxs), 110-modda – 12 ta ish (22 shaxs), 118-modda – 90 ta ish (126 shaxs), 121-modda – 1 ta ish (3 kishi), 126-modda – 1 ta ish (1 kishi), 130¹ – 2 ta ish (8 kishi), 135-modda – 85 ta ish (116 kishi), 136-modda – 11 ta ish (27 shaxs); 141¹-modda (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish) – 5 ta ish (6 kishi), MJTKning 47³-moddasi bilan 20 ta ish ko'rilgan (40 kishi) bo'lib, jami 5 372 300 so'm jarima undirilgan. Ko'rilgan ishlar bo'yicha Andijon, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida huquqbuzarlik aniqlanmagan. Eng ko'p Samarqand viloyati (4 ta ma'muriy ish), Namangan viloyatida (2 ta), Xorazm viloyati (4 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasida (6 ta) ma'muriy ishlar ko'rilgan.

2020-yilda: MJTKning 47-moddasi 3-qismi “Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish” bilan jami 4 ta ma'muriy ish qo'zg'atilib, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar jarima bilan javobgarlikka tortilgan hamda 223 ming so'm miqdorida jarima undirilgan.

MJTKning 47³-moddasi bilan 46 ta (jami 96 ta shaxs) ma'muriy ish ko'rilgan bo'lib, jami

45 715 000 so'm jarima undirilgan. Viloyatlar kesimida eng ko'p huquqbuzarlik Buxoro viloyatiga to'g'ri kelgan (14 ta ish ko'rilgan). Samarqandda 8 ta, Farg'ona viloyatida 8 ta ma'muriy tartibda ish ko'rib tamomlangan.

2021-yilda: (yanvar-avgust) MJTKning 47³-moddasi bilan 40 ta (90 ta shaxs) ma'muriy ish ko'rilgan bo'lib, jami 48 108 500 so'm jarima undirilgani o'rganildi. Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 6 tadan ma'muriy ish ko'rilgan bo'lsa, Samarqandda 8 oy ichida 7 ta ma'muriy ish ko'rib chiqilgan.

Sud-huquq amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish moddasi bo'yicha ko'rilgan ishlarda [20] ota-onalar va diniy marosim o'tkazgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Ko'rilgan ishlar tahlili, qizlarning yoshi 15–17 da ekanligi, ularning aksariyati nikoh yoshiga oid qonunchilik talabini buzayotganidan xabardor ekanligi, sodir

etilgan huquqbuzarlikdan pushaymon ekanini bayon qilganlar. 2021-yil 4-martda Namangan shahar sudida ko'rilgan ishda otaning o'zi nikoh o'qiganlik holati, Samarqand viloyati Payariq tuman sudida ko'rilgan ishda Al-Buxoriy masjidida faxriy imom bo'la turib nikoh o'qiganini ko'rish mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rilgan ma'muriy ishlarni o'rganish bu hudduda o'ziga xos xususiyat sifatida kelinni o'g'irlash marosimi o'tkazilishi, qiz va bola o'zaro sevgi muhabbat munosabatlari tufayli olib qochish marosimini kelishib amalga oshirganlar. Sudlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun tayinlangan jarima summasi 223 000 so'mdan 1 225 000 so'mgacha ota-onalarga nisbatan tayinlangan bo'lsa, eng katta jarima 2021-yilda Marg'ilon shahar sudida ko'rilgan ishda diniy marosim o'tkazgan shaxsga nisbatan 2 450 000 so'm jarima undirilgan. Bundan ko'rinadiki, ma'muriy jarimalarning miqdorini oshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. <https://constitution.uz/uz/clause/index>
3. <https://lex.uz/docs/104720>
4. <https://lex.uz/docs/2686000>
5. <https://lex.uz/docs/2640479>
6. <https://www.lex.uz/ru/docs/2685528>
7. <https://lex.uz/docs/2595913>
8. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда.
9. <https://news.myseldon.com/ru/news/index/238348361>
10. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.10.2018 й., 09/18/841/2081-сон.
11. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.09.2019 й., 03/19/562/3681-сон
12. <https://lex.uz/docs/5466673>
13. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.03.2019 й., 03/19/528/2741-сон
14. <https://lex.uz/docs/97664>
15. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.08.2021 й., 09/21/6279/0802-сон.
16. <https://www.lex.uz/acts/111453>
17. <https://drive.google.com>
18. Ўзбекистон Республикаси Олий суди тақдим этган маълумотлар асосида [https:// public.sud.uz](https://public.sud.uz)
19. <https://public.sud.uz/#!/sign/criminal>
20. <https://public.sud.uz/#!/sign/administrative>